

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH BO'YICHA AQSH TAJRIBASI

Davranov Xusniddin Baxranovich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
bosh yuriskonsulti, podpolkovnik*

Annotatsiya. Maqolada korrupsiya har qanday davlat uchun, siyosiy tuzumi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, global muammo ekanligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan ichki ishlar organlaridagi korrupsion holatlarning salbiy oqibatlari, bu yo'nalishda rivojlangan ilg'or davlatlar, xususan AQSH tajribasining ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, korrupsiyaviy holat, politsiya, profilaktika, manfaatlar to'qnashuvi, tamagirlik.

Abstract. The article describes the fact that corruption is a global problem for any country, regardless of its political system, level of economic and social development, the negative consequences of corrupt situations in law enforcement agencies, including internal affairs, and the importance of the experience of advanced countries that have developed in this direction, in particular, the United States.

Key words: corruption, crime related to corruption, corrupt state, prevention, conflict of interest, greed.

Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib ulgurdi.

Buni so'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rish mumkin. Bunda, eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashning sifat va son jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko'tarilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasining mahsuli ekanligini ta'kidlash joizdir. Jumladan, davlat rahbarining jamiyatni "halollik vaksinasi bilan emlash" zarurati haqidagi fikrlari bu boradagi ishlarga qo'yilgan tamal toshi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Prezidentimiz saylovoldi ma'ruzalarining birida "Bugungi kunda yana bir ustuvor vazifamiz – mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'layotgan yovuz illat, ya'ni korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarlikning oldini olish masalalarini samarali hal etishdan iborat" [1, 4b] ekanligini ta'kidlagan edi.

Shu asosda mazkur sohada normativ-huquqiy bazani tizimli ravishda takomillashtirib borish choralari ko'rilmogda. Fikrimizning isboti o'laroq, korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi qonunning kuchga kirgani, shuningdek turli qonunosti hujjatlarining qabul qilinganini keltirish mumkin. Xususan, 2017-yil 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyev "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, unda "korrupsiya", "korrupsiyaga oid huquqbuzarlik", "manfaatlar to'qnashuvi" kabi asosiy tushunchalarga izoh berish bilan bir qatorda, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari ham qayd etilgan.

Shuningdek, qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur sohada ishtiroki, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, jazo muqarrarligini ta'minlash va bu borada xalqaro hamkorlikni ta'minlash kabi choralar mustahkamlab qo'yildi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida 2021-yil yanvar oyida e'lon qilingan "Transparency International" xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan 2020-yil bo'yicha "Korrupsiyani qabul qilish indeksi" reytingida O'zbekiston 180 ta davlat orasida 26 ball bilan 146-o'rinni egallab, 7 pog'onaga ko'tarildi. 2019-yilda O'zbekiston 25 ball bilan 153-o'rinni egallagan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 23 ball bilan 158-o'rinni tashkil etgan edi. O'zbekiston ikki yil ichida 12 pog'onaga

yuqorilab, Markaziy Osiyo mintaqasida korrupsiyaga qarshi kurashishda sezilarli ijobiy ko'rsatkichni namoyish etdi [2; 3 b].

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida hali o'z yechimini kutayotgan masalalar ham yo'q emas. Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurash agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan korrupsiya holatlariga oid 1676 ta jinoyat ishi tergov qilinib, sudlarga yuborilgan. Sud yakunlari bo'yicha korrupsiyaga oid jinoyat ishlari bo'yicha 592,5 mlrd. so'm moddiy zarar yetkazilgani aniqlanib, shundan 170,8 mlrd. so'mi (28 foizi) undirilib, 421,7 mlrd. so'mi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan undirilishi belgilangan [3; 1 b].

Bu esa, davlat idoralari xodimlari, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning mukammal metodikasi ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli yetakchi xorijiy davlatlarning politsiya tizimida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha amaliyotini o'rganish lozim bo'ladi.

Ushbu masalada AQSH tajribasi alohida ahamiyatga ega. Xususan, 2017-yilning 18-sentyabrida Vashingtonning Bruks nomidagi institutida korrupsiyaga qarshi kurashga bag'ishlangan anjumanda XVF rahbari K.Lagart dunyo bo'ylab bir yilda olinadigan poraning umumiy hajmi 2 trln AQSH dollari ekanligini, bu esa dunyo YAIMning 2 %ni tashkil qilishini ta'kidlab o'tgan bo'lsa, 2017-yilning 10-dekabrida BMT Axborot markazi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda bir yillik pora miqdori 1 trln AQSH dollarini tashkil etishi, buning natijasida dunyo iqtisodiyotiga 2,6 trln AQSH dollari miqdorida zarar (jahon YAIMning 5%) yetkazilayotganligi ma'lum qilingan.

Umuman olganda, AQSHda korrupsiyaga muhim jinoyat turi sifatida qaralib, jinoyat qonunchiligi bilan ta'qib qilinadi. AQSH Adliya vazirligida asosiy faoliyati mansabdor shaxslar orasida korrupsiyaga qarshi kurash bilan shug'ullanuvchi alohida bo'lim mavjud. Mazkur bo'lim, qonunlarni buzishda ayblanayotgan boshqaruvning barcha bo'g'inidagi saylanadigan va tayinlanadigan mansabdor shaxslar ishi bo'yicha qat'iy nazoratni olib boradi. AQSHda federal darajada korrupsiyaviy holatlarni tergov qilishda Federal qidiruv byurosi (FBR) muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSHda politsiya tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy e'tibor profilaktikaga qaratilgan. Birinchi navbatda, nopok va no-kompetent bo'lgan shaxslarni tizimga kelib qolishining oldini olish maqsadida nomzodlar maxsus tekshiruvlardan o'tkaziladi. Rahbarlik lavozimlariga tayinlanayotgan nomzodlarga nisbatan maxsus tekshiruv Federal qidiruv byurosi orqali amalga oshiriladi. Maxsus tekshiruv Federal qidiruv byurosi va politsiya orqali barcha ma'lumotlar bazalari orqali, nomzodning tug'ilgan joyi, yashagan manzillari, o'qigan maktab va boshqa muassasalari hamda ish joylariga so'rov xatlari yuborish bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, nomzod kredit tashkilotlarining qarzdorlik ro'yxatlarida turish-turmasligi, bundan tashqari, agar harbiy xizmatga borgan bo'lsa harbiy arxiv orqali ham o'rganiladi.

Nomzodni o'rganish jarayonida uning moddiy ahvoriga, psixologik jihatdan sog'lomligi, hayot tarzidagi nuqsonlariga, salbiy illatlariga (maqtanchoqlik, janjalkashlik va h.k.) alohida e'tibor berilib, xorij fuqarolari bilan aloqasi, nodavlat tashkilotlarga a'zoligi to'liq o'rganilganidan so'ng, poligraf tekshiruvidan o'tkaziladi [4; 11-19 b].

Nomzod ishga qabul qilinganidan so'ng ham to'liq nazoratga olinadi. Har yili turli shakl va mazmundagi anketa so'rovnomasini to'ldirib beradi. Unda o'zining, turmush o'rtog'i va farzandlarining mol-mulki, oylik maoshidan tashqari daromadlari va boshqa ma'lumotlar to'liq ko'rsatib boriladi.

Axloqiy standart va kasb qoidalarini o'rnatish va politsiya tizimini rivojlantirish konsepsiyasida yosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda korrupsiya muammosini har tomonlama o'rganish ko'zda tutilgan bo'lib, politsiyaning barcha ta'lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar hamda politsiya xodimlari mas'uliyatini oshirish bo'yicha maxsus darslar o'tiladi [5; 12-13-b.].

Politsiya tashkiliy tuzilmasi rahbari korrupsiya muammosini tahlil qilib, mehnat jamoasida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy holatlarni aniqlashi, shuningdek jamoatchilik fikrini o'rganib, tegishli chora-tadbirlar belgilashi lozim. Shuningdek, politsiya tuzilmasining rahbari shaxsiy tarkib, jamoatchilik va fuqarolar oldida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi

kurash bo'yicha o'zining tashabbuskorligini namoyon qiladi. Rahbarlarning mas'uliyatligi instituti politsiyada korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagilar rahbarni korrupsiyaning oldini olishdagi majburiyatlariga kiradi. Jumladan:

1) oxirgi uch yilda korrupsiyaviy holatlar uchun ayblangan xodimlarni xizmat tavsif-nomasini tahlil qilish, korrupsiyaviy holatlar haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish;

2) oxirgi tekshiruvlar natijalarini ko'rib chiqish, bo'ysunuvidagi xodimi ko'rsatkichlarini yuqori baholagan rahbarlarni aniqlash hamda ushbu baho bilan xodimning ko'rsatkichlari to'g'ri kelmagan taqdirda uning rahbariga noxolisligi uchun tegishli chora ko'rish;

3) tarkibiy tuzilma shaxsiy tarkibining 50 % dan kam bo'lmagan xodimlari bilan anketa so'rovnomasi o'tkazib, natijasi bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish va boshqalar [6; 185 b].

Alohida e'tiborli jihati shundaki, Amerika metodikalarida ko'rsatilishicha, korrupsiya alomatlarining inkor etilishi – politsiya tuzilmasi ustidan yetarli darajada nazoratning yo'qligidan dalolat beradi. Rahbar har qanday qonun buzilishi, shu jumladan boshqa shaxs yoki tashkilotlar tomonidan aniqlangan korrupsion holat uchun javobgar hisoblanadi [6.; 63-70-b.].

Misol uchun, Los-Anjeles shahri politsiya boshqarmasining har bir korrupsiyaviy holat yuzasidan yuritiladigan hisobotida ushbu salbiy holat bo'yicha rahbarning tushunchasi va fikri keltiriladi. Unda korrupsiyaviy holat yuz bergan tuzilmaning rahbari ushbu huquqbuzarlikning kelib chiqish sababi va oqibatlarini to'liq yoritib, kelgusida bunday holatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarini rejalashtirib ko'rsatadi.

AQSH tadqiqotchilari tomonidan politsiya tizimidagi korrupsiyaviy holatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda bir qancha omillar, ya'ni xodimlarni iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli, psixologik yondashuvi, nomzodlarni sifatli tanlash, tarbiyalash va nazoratning sifati va tizimlilikiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ko'p vaqt aksariyat rivojlangan davlatlarda politsiya xizmati kuchli iqtisodiy motivatsiyaga ega bo'lmagan odamlardan jamlanishi, shuning uchun ular oylik maoshi ko'tarilishiga muhtoj emasligi haqidagi yondashuv mavjud bo'lgan.

Ko'pgina davlatlarda iqtisodiy jihat muhimligini ko'rsatuvchi yangicha yondashuv shakllandi: Politsiyadagi adolatli xizmat nufuzli

bo'lishi bilan birga, iqtisodiy jihatdan jozibador bo'lishi lozim. Darhaqiqat, politsiya xodimlarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular tomonidan korrupsion holatlarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi.

Politsiya xizmati xodimlariga yaratilgan shart-sharoit va ularni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash xodimlarni o'z o'rnini saqlab qolishga harakat qilishi va har qanday korrupsion motivatsiyalardan ongli ravishda voz kechishiga asos bo'ladi.

Politsiya xizmati xodimlari xizmatining jozibadorligini ko'rsatish uchun nafaqat ularning oylik maoshlarini oshirish, balki ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlab borish zarur. Jumladan, avtomashina va uyga imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash, sifatli tibbiy xizmat (sug'urta) ko'rsatish, bepul oliy ta'lim olishga sharoit yaratish, yuqori nafaqa bilan ta'minlash talab etiladi.

Buni to'g'ri anglagan AQSH hukumati 1980-yilda politsiya xizmati xodimlarining oylik maoshlarini sezilarli darajada oshirib, bir qator ijtimoiy imtiyozlar joriy etdi. Oldin amerikalik politsiyachilar iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli bo'yicha pastki qatlamga mansub bo'lgan bo'lsa, o'tkazilgan islohotlardan keyin ular o'rta va yuqori qatlamga ko'tarilgan. Natijada huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida kuchli raqobat yuzaga kelib, politsiya tizimiga nomzodlarning har taraflama eng munosibini saralab olish imkoniyati yaratildi.

Bunda, politsiya xodimi tez boyish maqsadida korrupsiyaviy holatga qo'l urib, qilmishi fosh bo'lib, javobgar bo'lgandan ko'ra, xizmatdagi yuqori oylik maosh va ijtimoiy imtiyozlarni olib, yillar davomida xizmati natijasida halol bo'ylik orttirishi hamda xizmat yakunida hurmat bilan nafaqaga chiqib, korrupsiyaviy holatlarga qo'l urmasligi hisobga olingan.

Politsiya xizmatining iqtisodiy jihatdan jozibadorligini oshirish korrupsiyaviy holatlarning oldini olishda yagona omil sifatida ko'rilmaydi. Ayrim xodimlar korrupsiyaviy holatga duch kelganida, kelajakda katta mablag'ga ega bo'lishdan ko'ra, uncha katta bo'lmagan mablag'ga ega bo'lish imkoniyatidan foydalanib qolish psixologiyasi mavjud. Lekin, ta'kidlash joizki, bu kabi korrupsiyaga moyil xodimlar ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Shu o'rinda, bunday xodimlarni salbiy holatlarga qo'l urishining oldini olish maqsadida doimiy ravishda profilaktik chora-tadbirlar o'tkazilib,

biror-bir xodim haqida salbiy ma'lumot olinganda uni tizimdan bo'shatib, tozalash ishlarini muntazam ravishda olib borish lozim bo'ladi.

Oldin politsiya tizimida asosan quyi bo'g'in xodimlari tomonidan korrupsiyaviy holatlar, ya'ni kichik huquqbuzarliklar uchun pora olish, rahnamolik qilayotgan tadbirkorlardan ulush olib turish, jabrlanuvchiga yordam bergani uchun undan sovg'alar olish va boshqa shu kabi holatlar ko'p uchragan. Islohotlar natijasida politsiya xodimlarining moliyaviy ta'minoti sezilarli oshirilganidan so'ng, bu kabi an'anaviy korrupsiyaviy munosabatlarga barham berildi.

Biroq, aynan politsiya xodimiga uyushgan jinoiy guruh tomonidan katta miqdorda pora taklif etilganida, shuningdek, yuqori turuvchi rahbarlari yoki nazorat qiluvchi tashkilotlar tomonidan korrupsiyaviy holatlarga undashganida xodimlarda korrupsiyaviy xulq-atvor saqlanib qoladi. Shuning uchun politsiyaning pastki qatlamida korrupsiya keskin kamayib, yuqori rahbariyat o'rtasida esa saqlanib qolgan. Politsiya tizimida korrupsiyaning bu kabi strukturasi, shaxsiy xavfsizlik xizmati tuzilmalari uchun katta muammolar tug'diradi.

Politsiya tizimidagi rahbarlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlarining ayrim ko'rinishlari, masalan, siyosiy korrupsiya (yuqori turuvchi nazorat organ va davlat tashkilotlarining noqonuniy "buyurtma"larini bajarish) politsiya shaxsiy xavfsizlik xizmatining real kompetensiyasi chegarasidan tashqarida bo'lib, bunday harakatlar davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining ta'sir doirasiga taalluqlidir [6.; 21-22-b.].

Tadqiqot yakunida xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, davlat xizmati tizimida butunlay korrupsiyadan qutulishning imkoni yo'q, faqatgina tizimli chora-tadbirlar natijasida uning darajasini pasaytirish va uni jilovlash imkoniyati mavjud.

Mazkur masalada sezilarli natijalarga erishgan va bugungi kunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashda jahonda yetakchilik qilib kelayotgan davlatlarning amaliyotini o'rganish va tizimli tahlil qilgan holda, o'zimizda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Uzbekiston-prezidentligiga-nomzod-shavkat-mirziyoevning-saylovoldi-dasturi//uz24.uz/uz/politics/
2. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza, 2021
<https://aca.uz/storage/JpBf0mwDELlEu06Uq6G9PgMv25RvRmetaNj11MzFiMmM3MGNhZWE3MTYzNjA2MWY2Y2RiYzcyMGIwMjAzLnBkZg==-.pdf>
3. Nodirxonova N. Korrupsiyaga qarshi kurash – davlat va jamiyat yangilanishida muhim omil.
<https://strategy.uz/index.php?news=1397>
4. Кикило В. Лэнгли – 100 гектаров концентрированного шпионажа // Эхо планеты, 1997. – № 42. – С. 11–19.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/protivodeystvie-korrupsii-v-politseyskih-vedomstvah-ssha-i-evropy>
6. Кинг Н. Обязанности и привилегии личного состава вооруженных сил США // Гражданское общество и вооруженные силы. – М., 1996. – С. 63–70.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-protivodeystviya-korrupsii-v-politsii>

